

SO‘FI OLLOYORNING

"SABOTUL OJIZIN" ASARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Olimova Durdona

FarDU filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Sabotul ojizin" asari hikoyatlaridagi obrazlar tahlili ochib beriladi. Shoirning obraz yaratishdagi mahorati, baytlardagi ijodkor uslubi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: "Sabotul ojizin", tasavvuf, aqida.

"Sabotul ojizin"da mavjudotlar ichra eng mukarram va mukammal qilib yaratilgan insonning mohiyati, uning hayotdagi o‘rni, ilohiy tartib asosiga qurilgan borliq bilan insonning o‘zaro munosabati singari umumbashariy masalalar islomiy nuqtayi nazardan atroflicha talqin qilingan. Shuningdek, asarda diniy-so‘fiyona g‘oyalar xalqchil va sodda usulda bayon etilgan. Bundan maqsad tasavvufni va islom haqiqatlarni keng savodsiz omma qalbiga yetkazish hisoblangan.

"Sabotul ojizin" asari mazmun va tuzilishiga ko‘ra aqid kitobi bo‘lsa-da, unda aqida masalalari bilan birga sof insoniy fitrat va axloqiy fazilatlar ibratli hikoyatlar orqali bayon qilingan. Hikoyatlarda muayyan tarixiy shaxsning hayotidan ibratli bir parcha rivoyatnoma uslubda nazmga solinadi. Shuningdek, har bir bo‘lim dalili sifatida asarda hikoyat berilib o‘tiladi. Ularda muayyan tarixiy shaxslar, sahobalar, tobeinlar, hakimlar obraz darajasiga olib chiqiladi va ularning hayotlaridan ibratli lavhalar keltiriladi. Jumladan, "Kamtarinlik haqida mav'iza" bobida Iroqda 20 yil amirlik qilgan zolim hukmdor Hajjoj ibn Yusuf ibn Abu Uqayl Saqafiy haqida hikoyat berib o‘tilgan:

Musulmong‘a bir kun aydi Hajjoj:

"Duoyi xayr uchun bizga qo‘ling och!"

Duog‘a qo‘l ko‘tardi u neki hol,

Dedi: "Yo Rab, bu zolim jonini ol!"

Hajjoj bir musulmonga: "Qani, bizning haqqimizga xayrli bir duo qil!" - dedi. Shunda iymoni butun, holati yuksak musulmon duoga qo'1 ko'tarib: "Ey Parvardigori olam, bu zolimning jonini ol" - dedi. Shunda:

Dedi Hajjoj o'shal mardi Xudog'a:

"Tiling bordi nechuk mundog' duog'a? "

Dedi Hajjog'a ul mardi neku sayr:

"Sanga ham barcha mo'minlargadur xayr.

Gunohing kam bo'lur, o'lsang agar tez,

Ketur zulming alarning boshidin nez".

Asarning "Rasulullohga ergashmoq va shayxi komil istamakning bayoni" bobida Shayx Basriy hikoyati keltirilishi komillikka erishish uchun inson, avvalo, ilm va amalni birlashtirish zarurligi xususida pand beradi. Unda shayx Basriy bilan muridining suhbatini bayon qilingan.

Hasan Basriy hijriy 21/642-yil Madinada tug'ilgan. Kuniyasi - Abu Sayid. 10 yoshida Qur'onni to'liq yod olgan. 16 yoshlarida Basra shahriga ko'chgan. Hasan Basriyning onasi mo'minlar onasi Ummu Salamaning xodimasi bo'lgan.

Asarda bir necha sahobayi kiromlarning nomlari va sifatleri haqida ham bayon etiladi. Jumladan, Savbon roziyallohu anhu haqida "Ta'madin tiyilish" bobida bir hikoyat berilgan:

Ajab mard erdi Savbon atqiyoda,

Ul otliq erdi bir kun, el piyoda.

Qo'lidan yerga qamchi tushdi nogoh,

Tushib oldi o'zi ul ko'ngli ogoh

Yoronlar aydi ul pokiza hulqa:

"Na bo'lg'ay erdi amr etsang bu xalqa?!"

Dedi Savbon: Tama'din bo'lmag'ay deb,

"Olib bergil!" - demakni ko'rmadim eb"

Hazrati Savbon roziyallohu anhu sahobayi kiromlardan bo'lib, taqvolilar ichra mardina kishi edi. Kunlardan bir kun u kishi otliq, hamrohlari piyoda yo'l bosar edi. Nogoh qamchisi qo'lidan yerga tushdi. Ko'ngli haqdan ogoh u zot shu zahoti otdan yerga tushib, qamchini oldi. Yonida piyoda ketayotgan do'stlari u halqumi pokiza zotga: " Qamchini olib berishni bizga buyursangiz bo'lardi-ku! " - deyishdi. Shunda Savbon : Ta'ma bo'lib qolmasin degan gumonda "olib beringlar" demoqni o'zimga ep ko'rmadim" - deb javob bergan ekan.

Asarda yuqorida nomi zikr etilgan ulug' zotlardan tashqari hikoyatlarda dev ya'ni shayton obrazi ham mavjud:

Dedi bir devi hosid yana birga:

"Borib qayd et falon fohishli yerga"

Dedi: "Ul furqadin forig' bo'l, ey yor,

Alardur bir-biriga rahbari nor.

Bilibdur zohiriy dushmanlarin do'st,

Emas hojamki, kirsam rag bila po'st".

Ushbu hikoyat asarning "Yomonlar suhbatidan qochib, yaxshilar suhbatida bo'lmoqning bayoni" bo'limining muhim qirrasini ochish uchun xizmat qilgan. Ya'ni bu yerda shayton yomon kishilarga makr-hiyla qilishning keragi yo'qligi haqida aytadi. Chunki ular zohiriy dushmanlarni do'st tutib o'zlarini o'zlari halok qilishadi.

Хулоса қилиб айтганда, "Sabotul ojizin" asaridagi obrazlar xilma-xilligi, turli xavf-u xatarlardan ogoh etishi bilan hayotdagi turli xil duch kelishimiz mumkin bo'lgan muammolarga yechim vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Komilov. Tasavvuf - Muvaraunnahr. O'zbekiston, 2009.
2. S.Olloyor. Rashid Zohid. Sabotul ojizin sharhi - Matbaachi. Toshkent, 2024.
3. Sabotul ojizin - ilmiy-ma'rifiy asar - Mirarab.uz